

HUQUQIY MUNOSABATLAR

Eshboyeva Madina

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi,
eshboyevamadina9@gmail.com

Annotasiya: *Huquqiy munosabatlar nima? Huquqiy munosabatlar qachon qanday vujudga kelgan? ushbu savollar bo'yicha fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *huquq, huquqiy munosabatlar, huquqiy tizim, huquqiy tartib, yuridik yordam*

Аннотация: *Что такое правоотношение ? Когда и как возникли правоотношения? изложены мысли и мнения по этим вопросам.*

Ключевые слова: *право, правоотношения, правовая система, правопорядок, юридическая помощь*

Abstract: *What is a legal relationship? When and how did the legal relationship arise? thoughts and opinions on these questions are presented.*

Key words: *law, legal relations, legal system, legal order, legal aid*

Kirish. Munosabat (falsafada) — muayyan tizimdagi elementlarning joylanish xarakteri va ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi falsafiy tushuncha; biror narsa yoki hodisaga nisbatan shaxs mavqeyining ifodasi; turli obyektlarni yoki biror obyektning turli tomonlarini fikran taqqoslash. Munosabatlar tegishli elementlardan turli darajadagi murakkab tizimlarni keltirib chiqaradi. Masalan, har qanday qonun narsalar, hodisalar o'rtasidagi muhim munosabat hisoblanadi va aksincha, ayni bir narsa boshqa narsalar bilan turli munosabatda bo'lishi mumkin. Huquqiy munosabatlar va huquqiy xulq-atvor jamiyatning normativ asosini tashkil etadi. Ular shaxslar o'rtasida qonun doirasida amalga oshiriladigan o'zaro aloqalarni, shuningdek, ularning huquqiy va ma'muriy majburiyatlarini belgilaydi. Huquqiy munosabatlar jamiyatdagi turli sohalarda, masalan, fuqarolik, mehnat, jinoyat va boshqa huquqiy tizimlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu munosabatlarning samarali tashkil etilishi huquqiy xulq-atvorni shakllantirishga, ya'ni har bir shaxsning qonunlarga rioya qilishiga, jamiyatda tartib va adolatni saqlashga xizmat qiladi. Maqolada huquqiy munosabatlarning mohiyati va huquqiy xulq-atvorning jamiyatdagi ahamiyati, ularning bir-biriga ta'siri va qonuniy me'yorlarga asoslangan xulq-atvorni shakllantirishdagi o'rni haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Jamiyatda huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, natijada bu ijtimoiy munosabatlar huquqiy shaklga ega bo'ladi va huquqiy munosabatlarga aylanadi. Huquqiy

munosabatlarni to'g'ri tushunib olish uchun ijtimoiy munosabatlar tushunchasini yaxshi bilib olish lozim. Ijtimoiy munosabatlar bu – kundalik hayotda insonlar o'rtasida vujudga keladigan turli shakldagi o'zaro aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlarning subyektlari ijtimoiy uyushmalar, tashkilotlar va alohida shaxslar bo'lishi mumkin. Huquqiy munosabat tushunchasi huquqning insonlar yurish-turishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi. Huquqiy munosabatlar doirasida jamiyat hayoti va faoliyati barqaror tartibga solingan va rivojlangan holatga erishadi. Huquqiy munosabatlar – shaxslar o'rtasidagi yuridik aloqa bo'lib, bu ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. O'zaro huquq va burchlarsiz huquqiy munosabat vujudga kelmaydi. Huquqiy munosabatlar – bu ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan bir qismi bo'lib, ularning subyektlari subyektiv huquq va subyektiv yuridik majburiyatlarga ega bo'lishadi. Huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi uchun moddiy va yuridik asoslar, ya'ni ijtimoiy munosabatni tartibga soladigan tegishli huquq normasi, tomonlarning huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishlari hamda yuridik fakt mavjud bo'lishi kerak. Huquqiy adabiyotlarda huquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va ularni tasniflash me'zonlariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjuddir.

Huquqiy munosabatlar – bu huquqiy normalar yordamida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Huquqiy normalar o'zgalarning vazifa va funksiyalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradilar, huquqiy munosabatlarni tartibga solish bilan huquq hayotga tadbiq etiladi. Huquqiy munosabatlar huquq normalari asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabat bo'lib, uning ishtirokchilari davlat tomonidan ta'minlanadigan subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Huquqiy munosabatlarni yuzaga kelishi uchun tegishli asoslar mavjud bo'lishi kerak. Huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishiga asos bo'ladigan muayyan hayotiy hodisa yoxud harakatlarga yuridik faktlar deyiladi.

Huquqiy munosabatlar tasnifi turli asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, huquq normalari kabi ularni ham sohalar bo'yicha tasniflash mumkin: konstitutsiyaviy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va boshqalar. Bunday tasnifning asosini ijtimoiy munosabatlarning alohida sohalariga xos bo'lgan tomonlar tashkil qiladi. Mazmuniga qarab huquqiy munosabatlar umumtartibga soluvchi, regulativ va qo'riqllovchi turlarga bo'linadi. Umumtartibga soluvchi huquqiy munosabatlar bevosita qonundan paydo bo'ladi va gipotezasida hech qanday yuridik faktlar ko'rsatilmagan huquq normalaridan kelib chiqadi. Bunday normalar kimlarga mo'ljallangan bo'lsa, ularning barchasiga hech qanday shartlarsiz bir xil huquq va majburiyatlar keltirib chiqaradi. [1]

Fuqarolar – huquqning turli sohalariga oid huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lib, ular konstitutsiyaviy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, oila, mehnat, moliyaviy, protsessual va boshqa munosabatlarga kirishadilar. Fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy faolligi ularning jamiyatda, ijtimoiy guruhlarda hamda mehnat jamoalarida tutgan o'rinlari, ularning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlari bilan bog'liqdir.

Huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil etuvchi, ularning vujudga kelishi uchun zarur bo'lgan tarkibiy qismlari bor. Bular Huquqiy munosabatlarning sub'yekti, ob'yekti, subyektiv huquq va yuridik majburiyatlardir (qarang Huquq sub'yekti, Huquq ob'yekti). Subyektiv huquq huquqdor shaxsning huquq normalari doirasida hamda konkret yuridik faktlar asosida vujudga keluvchi xatti-harakati, fe'l-atvorining me'yoriydir. Subyektiv huquq huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquq normasiga asosan unda ko'zda tutilgan harakatni sodir qilishga haqli ekanliklarini yoki ma'lum harakatlarni amalga oshirilishini talab qilish vakolatiga ega ekanliklarini bildi-radi. Yuridik majburiyat — huquqiy munosabat ishtirokchilarning tegishli huquqiy normaga asosan o'zlarining burchi (majburiyati) bo'lgan harakatni amalga oshirishlari yoki muayyan harakatni sodir etishdan o'zlarini tiyishlaridir. Yuridik majburiyatni bajarmaslik yuridik javobgarlikka olib keladi. Subyektiv huquq va yuridik majburiyat o'zaro bog'liqdir. Huquq majburiyatsiz mavjud bo'lmaydi. Aytaylik, ish vaqtidan tashqari ishlaganlik tufayli oshirilgan haq to'lash — ma'muriyat uchun majburiyat, xodim uchun — huquqdir. Huquqiy munosabatlar huquq tarmoqlariga ko'ra konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, jinoiy-huquqiy, mehnat, oilaviy va boshqa turlarga bo'linadi. O'zining vazifasi, mazmuniga ko'ra, umumiy tartibga soluvchi (regulyativ) va qo'riqlovchi (negativ) Huquqiy munosabatlarga ajratiladi. Huquqiy munosabatlar umumiy va konkret, mutlaq va nisbiy turlarga ham bo'linadi. Umumiy Huquqiy munosabatlar deganda, avvalo, fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va majburiyatlarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy normalar asosida vujudga keluvchi munosabatlar tushuniladi. Fuqarolar qonunda nazarda tutilgan vakolatlarga ega bo'lgach, barcha huquq sub'yektlari bilan huquqiy aloqadorlikka hisoblanadilar. Mazkur huquq va erkinliklar amalga oshirilsa aniq Huquqiy munosabatlar vujudga keladi. Mutlaq Huquqiy munosabatlarda bir taraf aniq ma'lum bo'ladi — bu subyektiv huquq egasidir. Qolgan barcha sub'yektlar majburiyat o'tovchi maqomida bo'ladilar. Bunday Huquqiy munosabatlarga misol tarzida mulkchilik munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Nisbiy huquqiy munosabatlarda barcha ishtirokchilar aniq belgilanadi, ya'ni huquq egasi ham, majburiyat o'tovchi tomon ham (sotuvchi va xaridor, buyurtmachi va pudratchi, korxona rahbari va xodim) ma'lum bo'ladi. [2]

Huquqiy munosabatlar jamiyatdagi tartibni, adolatni va huquqiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular fuqarolar o'rtasidagi huquqiy aloqalarni belgilab, ularning huquq va majburiyatlarini aniq ko'rsatadi. Huquqiy tizimning samarali ishlashi, o'z navbatida, jamiyatda ishonch va barqarorlik yaratadi, shuningdek, davlatning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy munosabatlar tizimini takomillashtirish, qonunlarni ishlab chiqish va ularni amalda to'g'ri qo'llash har bir jamiyat uchun zarurdir. Shu tariqa, huquqiy munosabatlar nafaqat huquqiy tartibni, balki ijtimoiy adolatni va xavfsizlikni ham ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.Ahmadshayeva .M.Najimov. Sh.Saydullayev H.Boboyev.
Davlat va huquq nazariyasi. Darslik TOSHKENT 2020
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 200-2005

